



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ning  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun  
"YOSH TARIXCHI" NOMLI*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
<b>1.</b>							
<b>2.</b>							
<b>3.</b>							
<b>4.</b>							
<b>5.</b>							
<b>6.</b>							
<b>7.</b>							
<b>8.</b>							
<b>9.</b>							
<b>10.</b>							
<b>11.</b>							
<b>12.</b>							
<b>13.</b>							
<b>14.</b>							
<b>15.</b>							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun tuzilgan "Yosh tarixshi" to'garagining  
ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi.			
2.	Urug'chilik jamiyati.			
3.	Eneolit va bronza davri.			
4.	Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi.			
5.	Nil vodiysi va uning aholisi.			
6.	Qadimgi Misr.			
7.	Piramidalar va dahmalar.			
8.	Qadimgi Misr madaniyati.			
9.	Bobil podsholigi			
10.	Old Osiyo davlatlari.			
11.	Ahamoniylar davlati.			
12.	Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi.			
13.	Xitoy sivilizatsiyasi.			
14.	Miloddan avvalgi III va milodiy II asrda Xitoy.			
15.	O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar.			
16.	Zardushtiylik.			
17.	Antik tarixning boshlanishi.			
18.	Qadimgi Yunoniston yuksalishi.			
19.	Afinada demokratiya.			
20.	Yunon-fors urushlari.			
21.	Fuqaro madaniyat			
22.	Qadimgi Yunoniston madaniyati.			
23.	Olimlar va mutafakkirlar.			
24.	O'rta Osiyoga Ahamoniylar hukmronligi.			
25.	Salavkiylar davlati.			
26.	Yunon-Baqtriya podsholigi			
27.	Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati.			
28.	Kushon podsholigi.			
29.	Buyuk Ipak yo'li.			
30.	Qadimgi Italiya			
31.	Rim respublikasi.			
32.	O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash.			
33.	Qullar va gladiatorlar.			
34.	Rim respublikasining qulashi.			

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi.

### **Mashg‘ulotning maqsadi**

Ta’limiy maqsad: -o‘quvchilarga Qadimgi tarixni o‘rganish. Qadimgi tarix bo‘yicha manbalar. O‘zbekiston va jahon sivilizatsiyasi. Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya haqida ma’lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: - o‘quvchilarga vatanimiz tarixi kechirgan murakkab va mashaqqatli hayoti haqida, bundan saboq olishni o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: epigrafika, numizmatika, sivilizatsiya, Rigveda, Avesto.....

Mashg‘ulot turi: yangi bilimlarni bayon qilish va egall Lingivist, Etnograf, Antropolog

Metod: suhbat, tushuntirish, “Savol-javob” metodi, “Rasmda aks etgan tarix”

Jihoz: Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlar, rasmlar, slyayd, kompyuter

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, b) davomatni aniqlash, c) sinf tozaligini kuzatish, d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:

Rasmlarga ta’rif berib.



1. Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

2. Nima uchun odamlar qo‘lida qurol yo‘q?

III. Yangi mavzu bayoni:

Arxeologlar tarixiy yodgorliklarda qazishma ishlarini olib boradilar va ula qadimshunoslar deb atalib tarixiy manbalarni topadilar.

Antropologlar qadimgi odamlarning qoldiqlari (skelet va boshchanoq)ni sinchiklab tekshirib, ular- ning tashqi ko‘rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro‘y bergan o‘zgarishlar- ni o‘rganadilar.

Etnograflar qadimgi odamlarning ko‘pgina udumlari, xo‘jalik va madaniy an‘analarini saqlab qolgan hozirda mavjud qabilalar va xalqlarni o‘rganadilar.

Lingvistlar, ya’ni tilshunoslar u yoki bu zamonaviy tilning qanday shakllanganini bilish maqsadida qadimgi tillarni o‘rganadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘rgazma sifatida arxeologik topilmalar, etnografik ma’lumotlar, boshqa davlatlarning yozuvini ko‘rsatadi.

Yozma manbalar topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini tiklash osonlashdi. O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»dir. Unda yurtimizning qadimgi tarixi viloyatlari - Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm aholisi madaniyati to‘g‘risida hikoya qilinadi.

Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba Behistun qoyalari yozuvlaridir. Behistun qoyalari Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi Doro I

buyrug'i bilan qoyaga o'yib yozilgan qadimgi fors, elam va bobil tillaridagi yozuvlarda, Doro I zabt etgan mamlakat va xalqlar, shu jumladan, Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya davlatlari sanab o'tiladi.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon tarixchisi Gerodot turli mamlakatlarga sayohat qilib, to'qqiz kitobdan iborat «Tarix» asarini yozdi. Unda olkamizning qadimgi aholisi to'g'risida ma'lumot ham beriladi.

O'quvchilarga yunon rim olimlari manbalarini to'g'ri belgilang.

1	Geradot	A	«Tarixiy yilnomalar»
2	Kvin Kursiy Ruf	B	«Aleksandrning harbiy yurishlari»
3	Arriyan	C	«Geografiya»
4	Strabon	D	«Makedoniyalik Aleksandr tarixi»
5	Simma Szyan	E	“Tarix”

1\_\_\_\_, 2\_\_\_\_, 3\_\_\_\_, 4\_\_\_\_, 5\_\_\_\_\_

VI.O'quvchilarni baholash va uyga vazifa: Guruhlarga uyga vazifa qilib, arxeologik topilmalar topib kelish,etnografik ma'lumotlar to'plash,biror notanish tilni o'qib kelish topshirig'i beriladi.

1-guruh: O'quvchilar izlanib uydan yoki mahallasidan arxeologik topilmalar topib kelish.

2-guruh: O'zi yashab turgan hududni etnografik ma'lumotlarini to'plab kelish.(hudud nomi, aholi xo'jaligi, urf -odatlar)

3-guruh: Biror notanish til o'rganib, 10 ta so'z yod olib kelish.

Uyga vazifani bajarishda o'quvchilar kattalardan yordam olishlari mumkin.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil



Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Urug‘chilik jamiyati.

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:**-o‘quvchilarga so‘nggi paleolit davr. Mezolit davri. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi. Tarixni davrlashtirish va xronologiya haqida, so‘ngi paleolit davri kashfiyotlari haqida, neolit davri haqida ma’lumot berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** - o‘quvchilarni manan yetuk inson qilib tarbiyalashga hissa qo‘shish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini,fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

**Mavzuga oid tay anch tushunchalar:** Teshiktosh, Mezolit, Obishir, Qo‘shilish, Machay, Zarautsoy, mikrolitlar

**Metod:** suhbat, tushuntirish, “Savol-javob” metodi

**Jihoz:** Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlı ko‘rgazma, slayd, kompyuter

**I.Tashkiliy qism:**

- |                              |   |
|------------------------------|---|
| a) Salomlashish,             | b) davomatni aniqlash,                    |
| c) sinf tozaligini kuzatish, | d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash. |

**II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar guruhlariga ajratiladi va nomlanadi.

1-guruh: Pitekantrop odam,                      2-guruh: Neandertal odam,                      3-guruh: Sinantrop odam

O‘quvchilar o‘qituvchi nima uchun guruhlarini shunday nomlaganini aytadilar(guruhlariga ta’rif beradilar).

Guruhlariga topshiriqlar beriladi.Uyga vazifa qilib berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar umumlashtirib namoyish etadilar.

1-guruh; Qadimgi odamlar mashg‘uloti nimadan iborat bo‘lgan?

2-guruh;Qadimgi odamlarning mehnat qurollari qanday bo‘lgan?

3-guruh; Qadimgi odamlarning mehnat qurollari nimadan yasalgan?

**III.Yangi mavzu bayoni:**

Reja:

1.So‘ngi poleolit davri

2.Mezolit davri

3. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi

Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o‘zgardı. Odamning o‘zi ham, tashqi qiyofasi ham o‘zgarib bordı. Mazkur davrda hozirgi qiyofadagi odam - kromanyon odami yashagan.Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo‘jalikning yangi tarmoqlari - ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik vujudga keldı.

Neolit davrida - yangi tosh asrida o‘zlashtiruvchi xo‘jalikda tub o‘zgarish sodir bo‘ldı, avval tabiatdan barcha tayyor narsalarnı olgan inson Qadimgi Sharqning turli viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalik - ziroatchilik va chorvachilikka o‘ta boshlaydı. O‘rta Osiyoda neolit davri miloddan avvalgi 6-4-mingyilliklar bilan sanaladı Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydılar.

Mezolit va neolit davrida odam toshdan mayda mehnat qurollarini - mikrolitlar yasashni, toshga ishlov berishning oldin ma’lum bo‘lmagan usullarini: sillıqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni qo‘llay boshladı.

Neolit davrida qabilalar o‘troq turmush tarziga o‘tib, doimiy turarjoylarqura



## Urug'chilik jamoasi

boshlaganlar. Shu davrda paxsa imoratlar qurilishi vujudga kelgan. Asta-sekin urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari shakllanib borgan. O'troq turmush tarzi va mehnat qurollarining yanada takomillashishi jamoalarning dehqonchilikka o'tib borishiga imkon yaratadi. O'troq turmush tarziga o'tilishi har xil buyumlar tayyorlash sohasi bo'lgan hunarmandchilik rivojiga zamin yaratdi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlar soni bittaga ko'paytiriladi.

1-guruh: Pitekantrop odam,

2-guruh: Neandertal odam,

3-guruh: Sinantrop odam

4-guruh: Kramanyon odam

Topshiriq: So'ngi paleolit, mezolit va neolit davri kashfiyotlarini jadvashtiring.

No	Qadimgi tosh davrlari	So'ngi paleolit	Mezolit	Neolit
1.	Qaysi davrlarni o'z ichiga oladi			
2.	Mashg'ulotlari			
3.	Mehnat qurollari			
4.	Kashfiyotlari			
5.	Yashash sharoiti			

**V. O'quvchilarni baholash:** Mashg'ulotda eng faol guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi, faol o'quvchilar alohida baholanadi.

### VI. Uyga vazifa:

Guruhlarga uyga vazifa qilib quyidagi topshiriqlar beriladi.

1-guruh: Pitekantrop odam: Urug' jamoalarga birlashishning afzalliklari nimada deb o'ylaysiz?

2-guruh: Neandertal odam: O'q yoyning yasalishi odamga nima berdi?

3-guruh: Sinantrop odam: Neolit davri nima uchun yangi tosh davri deb aytili?

4-guruh: Kramanyon odam: Kramanyon odami boshqa odamlardan qanday farqi bor?

**Mavzu:** Eneolit va bronza davri.

**Mashg‘ulotning maqsadi**

**Ta’limiy maqsad:**-o‘quvchilarga Metall davrining asosiy xususiyatlari. Patriarxatning boshlanishi. Bronza davri manzilgohlari haqida ma’lumot berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** - o‘quvchilarni manan yetuk inson qilib tarbiyalashga hissa qo‘shish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini,fikrlash qobiliyatini, shakllantirish

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Sug‘orma dehqonchilik, patriarxat, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Zomonbobo

**Metod:** suhbat, tushuntirish, “Savol-javob” metodi, “Fikrlar testi”

**Jihoz:** Mashg‘ulotlik,siyosiy xarita,tarqatma, rasmlı ko‘rgazma, slayd, kompyuter

**I.Tashkiliy qism:**

a) Salomlashish,

b) davomatni aniqlash,

c) sinf tozaligini kuzatish,

d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

**II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:**

Guruhlarga topshiriqlar beriladi.Uyga vazifa qilib berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar umumlashtirib namoyish etadilar.

1-guruh: Pitekantrop odam:Urug‘ jamoalarga birlashishning afzalliklari nimada deb o‘ylaysiz?

2-guruh: Neandertal odam: O‘q yoyning yasalashi odamga nima berdi?

3-guruh: Sinantrop odam:Neolit davri nima uchun yangi tosh davri deb aytili

4-guruh: Kramanyon odam: Kramanyon odami boshqa odamlardan qanday farqi bor?

**III.Yangi mavzu bayoni:**

Reja:



**Bronzadan yasalgan to‘g‘nog‘ich va tosh munchoqlar.**  
Mil. avv. XVII as

1. Eneolit davri.

2. Bronza davri dehqonlarining manzilgohlari.

Metall davrining Neolit davrining oxirida odamlar asosiy jxtiro va kashfiyotlar orasida eng xususiyatlari buyuklaridan birini yaratishga muassar bo‘ldilar misdan foydalanishga, undan mehnat qurollari yasashga o‘tildi. Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan birgalikda ishlatilish davri eneolit - mis-tosh asri deb ataladi. Bu davr miloddan avvalgi 4-3-mingyillikning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi.Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan afzalliklariga qaramasdan, unchalik keng tarqalmadi. Odamlar misni qalayi, qo‘rg‘oshin yoki rux bilan qo‘shib, eritib bronza olishni o‘rganganlaridan keyingina metall tosh qurollarni siqib chiqara boshladi. So‘ngra misga nisba tan mustahkam sun‘iy metall keng tarqaldi.

Metallurgiya rivoji kishilarning moddiy va ma’naviy madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mil. avv. 4-ming yillikda Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi. O‘rta Osiyo janubida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi, xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar qurila boshlandi, idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydalanishga kirishildi. Sopol idishlar hayvonlarning, qushlarning tasvirlari va o‘simlik naqshlari (yaproqlar, gullar) bilan bezatila boshlandi.

Bronza misdan ko‘ra ancha qattiqligi tufayli miloddan avvalgi 3-mingyillik o‘rtalaridan boshlab asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yaroq‘lar va zeb-ziyatlar tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy ashyoga aylanib qoldi.Bronza mehnat qurollariga ega bo‘lgan odamlar endi dalalarga ancha durust ishlov berish va ekin maydonlarini

kengaytirish imkonini qo‘lga kiritdi.

Dehqonlarning qadimgi manzilgohlari dan biri Zarafshon daryosi havzasidagi Zamonbobo ko‘li yaqi- nidan topilgan. Xorazm hududidan ham qadimgi dehqonchilik manzilgohlari topilgan.

Arxeologlar Surxondaryo vohasidan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo‘lgan Sopollitepani topishdi. Qazishmalar davomida bu yerdan uy-joylar, maishiy va xo‘jalik xonalardan

tarkib topgan paxsa imoratlar, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik xumlarda saqlangan bug‘doy va arpa doni topilgan.

#### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlar soni bittaga ko‘paytiriladi.

1-guruh: Pitekantrop odam,

2-guruh:

Neandertal odam,

3-guruh: Sinantrop odam

4-guruh:

Kramanyon odam

Topshiriq: So‘ngi paleolit,mezolit va neolit davri kashfiyotlarini jadvallashtiring.



## **Bronzadan yasalgan bilaguzuk.**

*Mil. avv. XII asr*

№	Qadimgi tosh davrlari	So‘ngi paleolit	Mezolit	Neolit	Eneolit
1.	Qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi				
2.	Mashg‘ulotlari				
3.	Mehnat qurollari				
4.	Kashfiyotlari				
5.	Yashash sharoiti				

**V.Baholash:** Mashg‘ulotda eng faol guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi, faol o‘quvchilar alohida baholanadi.

#### **VI.Uyga vazifa:**

Mashg‘ulotlik matni bilan ishlash, savollarga javob yozish, tarixiy atamalarni yod olish.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘g‘arak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Temir asriga o‘tish davrida O‘rta Osiyoning rivojlanishi.

### **Mashg‘ulotning maqsadi**

**Ta‘limiy maqsad:-** o‘quvchilarga temirdan foydalanish. Ijtimoiy tuzum. Harbiy demokratiyaga o‘tish. “Avesto”- eng qadimgi yozma manba ekanligini tushuntirib berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** - o‘quvchilarni manan yetuk inson qilib tarbiyalashga hissa qo‘shish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** Xetlar, harbiy demokratiya, nmana, varzana, dahyu,

**Metod:** suhbat, tushuntirish, “Savol-javob” metodi, “To‘g‘arisini top”, “Rasmlarda aks etgan tarix”

**Jihoz:** Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmi ko‘rgazma, slayd, kompyuter.

### **I. Tashkiliy qism:**

a) Salomlashish,

b) davomatni aniqlash,

c) sinf tozaligini kuzatish,

d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash

### **II. O‘tiganilgan mavzuni takrorlash.**

Uyga berilgan topshiriqlar quyidagi test topshiriqlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

1. Neolit davri oxirida odamlar ixtiro va kashfiyotlari orasida eng buyuklaridan birini aniqlang.

A) kulolchilikning kashf etilishi

B) to‘qimachilikning vujudga kelishi

S) g‘ildirakni kashf etilishi

D) misdan foydalanish

2. Eneolit – bu ...

A) qadimgi tosh asri B) yangi tosh asri S) mis-tosh davri D) o‘rta tosh asri

3. Eneolit davri qaysi mingyilliklarni o‘z ichiga oladi?

A) mil. avv. 12-7-mingyilliklar B) mil. avv. 6-4-mingyilliklar

S) mil. avv. 4-3-mingyilliklar D) mil. avv. 3-2-mingyilliklar

4. Qadimgi davrda nima sababdan misdan yasalgan qurollar keng tarqalmagan edi?

A) juda kam miqdorda bo‘lganligi uchun B) faqat zeb-ziynat buyumlari tayyorlanganligi uchun

S) temirdan yasalgan qurollar keng tarqalganligi uchun D) mustahkam bo‘lmaganligi uchun

5. Bronza qaysi metallar qorishmasidan tayyorlanadi?

A) mis, qo‘rg‘oshin, temir B) qalay va mis S) kumush, mis, qo‘rg‘oshin D) mis, qalay, qo‘rg‘oshin

### **III. Yangi Mashg‘ulot bayoni**

Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollari yasashni o‘rgangan kezlardan beri oradan ko‘p asrlar o‘tdi. Faqat miloddan avvalgi I mingyillik boshlaridagina temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu jarayon ancha sermehnat bo‘lgan, negaki temir misga qaraganda ancha yuqori haroratda eriydi (1500°C). Ammo temir mis va bronzaga nisbatan olganda ulkan afzalliklarga egadir: temir ulardan qattiqroq edi. Temirdan birinchi bo‘lib Kichik Osiyoda xetlar (miloddan avvalgi XIV—XIII asrlar), so‘ngra qo‘shni mamlakatlar (Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti) xalqlari foydalana boshladi.



**Kamon  
o‘qlarining**



**Temir pichoq.**  
Mil. avv. VII—VI

Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir nodir va qimmatbaho metall bo'lmisada, undan dastlab zeb-ziynat buyumlari sifatida foydalanishgan. Shunday bezaklar Misr fir'avni Tutanxamon maqbarasidan va Kavkazdagi Maykop qo'rg'oni yodgorligidan topilgan.

Mil. avv. I mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi to'rt guruhga ajratilgan: koinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar.

Qabila-urug' boshliqlarining nufuzi asta-sekin orta bordi. Harbiy sardorlarning nufuzi ayniqsa ortib, hokimiyat otadan o'g'ilga o'tadigan bo'ldi.

Ijtimoiy tuzum taraqqiyoti: urug' -- urug' jamoasi -- hududiy qo'shnicilik jamoasi -- qabila—qabilalar ittifoqi -- davlat

Harbiy demokratiya — ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shaklidir.

"Avesto"dan O'rta Osiyoda jamiyatning negizi "nmana" deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini bilib olamiz. Bir necha "nmana"lar urug' jamoasi — "vis"ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnicilik jamoasi esa "varzana" deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga — "zantu"ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa — "daxyu"ga uyushishgan. "Avesto"ga ko'ra, jamiyatni idora qilishning quyidagi tizimi mavjud bo'lgan: oqsoqollar kengashi - xalq yig'ilishi - alohida tumanlar - viloyatlarning hukmdorlari. Aholi urug' va qabila bo'yicha emas, balki hududiy taomilga ko'ra guruhlarga ajratilishi vujudga kelayotgan davlatchilikning muhim alomati edi.

#### **IV. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash.**

##### **1. Savol-javob va mavzuning asosiy mazmunini takrorlash orqali amalga oshiriladi.**

O'qituvchi sinf o'quvchilarini 5-6 guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha quyidagi topshiriqlarni beradi:

2. Guruhlarda ishlash yakunlarini chiqarish.

V. Dars yakunlarini chiqarish.

1. O'qituvchi o'quvchilar bajargan yozma ish va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. Uyg'a vazifalar.

1. Mashg'ulotlikdagi o'rganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.

2. Mavzudagi asosiy tushunchalar va atamalarni daftarga yozish.

3. Mavzuni asosiy mazmunini so'zlab bera olish.

*v**eb-saytimiz: Zokirjon.com***

***Hujjat Word variantda beriladi.***

***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi***

**Tarix fanidan 6-sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 15 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**